

G'AFUR G'ULOM IJODINING HUQUQIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Baxromova Laylo Rayim qizi

Ommaviy huquq fakulteti, davlat huquqiy faoliyati yo'nalishi

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7710153>

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'afur G'ulom ijodining huquqiy tahlili, qonun ijodkorligidagi o'rni va asarlarida ilgari surilgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasini qo'llab quvvatlovchi g'oyalar tahlili keltirilgan. Shuningdek, adibning adabiy tanqidiy maqolalari tahlili orqali hozirgi kunda jamiyatda mavjud bo'lgan kamchililarga e'tibor qaratilgan. Milliy merosimizni o'rganish malakali yurist kadrlar yetishtirishda muhimligi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: "Yodgor", "Shum bola", huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy idealizm, huquqiy neglizm, yoshlarga oid davlat siyosati, voyaga yetmaganlarning mehnati, ayollar huquqlari, bola huquqlari, firibgarlik, o'g'irlik.

O'zbek xalqi azal-azaldan adabiyotni sevuvchi, she'riyatga mehr qo'yib, ijodkor yozuvchilar merosini avaylab-asrovchi xalqdir. Turoni zaminimizda shunday adiblar yashab ijod qilganki, ularni tanimagan, ularning ijodidan bahramand bo'lmagan inson topilmasa kerak. Shunday zabardast yozuvchilardan biri, o'tkir qalam sohibi- G'afur G'ulom.

G'afur G'ulomning bolaligi sovuq urush davriga to'g'ri kelgan, ota-onasidan erta yetim qolgan shoir to'rt yetimning kattasi edi, hayotning achchiq-chuchugini totishga, turmushning mushtlarini tatib ko'rishga majbur bo'lgan. G'ofur G'ulomning otasi savodli, o'zbek, tojik va rus tillarida so'zlashar hamda Mirzo va G'ofur taxalluslarida she'rlar yozar edi. G'afur G'ulom bolaligida Toshkentlik yozuvchi va xattotlardan Xislat, Shomurod kotib, Farg'onalik shoirlardan esa Asiriy, Muqimiy, Furqat va Muhiylar davrasida bo'lishi-o'z iqtidorini adabiy davrada yetuklikka yetkazishiga sabab bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, shoirdan qolgan xazinalar yuksak qiymati va jamiyat hayotida o'zining ahamiyatiga egadir. Demak, "Shoirlar o'tsa ham ularning asarlari shoir hayotidan so'zlovchi ko'zgu" deyilishi bejizga emas ekan.

G'afur G'ulom ijodini o'rganish hozirgi kunda ham muhimdir. Ayniqsa, yozuvchining asarlari huquqiy jihatdan ham dolzarb bo'lib, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishda, huquqning turli sohalarida kelib chiqayotgan huquqbuzarliklarga yechim berishda, inson manfaatlari oliy darajada ekanligini mustahkamlashda ahamiyatli hisoblanadi. Qolaversa, mamlakatimiz kelajagi qo'lida bo'lgan yosh avlodni vatanparvar hissida tarbiyalash, xalqimiz boshidan o'tqazgan mashaqqatli tarixni o'rganish orqali muqaddas ne'mat- mustaqilligimizni qadrlash, demokratik davlat barpo etishga munosib hissasini qo'shishi, fuqaroviy burchlarini sidqidildan ado etishida tayanch vazifasini o'taydi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yozuvchi ijodida oilaviy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy munosabatlar, jinoyat huquqiga oid masalalarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, uning adabiy-tanqidiy maqolalari (Mukammal asarlar to'plami o'n birinchi tom) ham jamiyatda azaldan mavjud bo'lgan kemtiklarini ochib beradi. O'sha davrning xolis tasvirlarini o'qir ekanmiz, tafakkur va solishtirishlar orqali hozirda mamlakatimiz davlat boshqaruv tizimida, huquqni muhofaza qiluvchi organlar (HMQO) tizimida, qonun ijodkorligida amalga oshirilgan va amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlarni ko'rishimiz mumkin.

Demak, quyida G'afur G'ulom asarlarida yoritilgan huquqiy muammolarni tahlil qilamiz:

“Yodgor” qissasi 1936-yilda yozilgan bo’lib, ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan bir qatorda oila huquqiga oid dolzarb mavzularni qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Asar qahramoni tomonidan: “Kelajakda baxtli bo’lmoqni istagan har bir qiz o’qimog’i kerak”, - degan fikr ilgari surilgan hamda Saodat timsolida ayollarning jamiyatdagi o’rnini, gender tengligi tushunchasi ahamiyatini asarda ko’rsatib bera olgan. Qissa ajrim sahnasi bilan boshlanib, asar qahramonlarining kelajak hayotiga salbiy ta’sir ko’rsatishi kitobxonga ma’lumdir: Oldindan til biriktirib, firibgarlik orqali o’zga shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatidan qiyinchiliksiz foydalanib, faxdyo xodimlarini aldashni ossongina amalga oshirish orqali o’zining g’araz maqsadlariga erishadi, chaqaloqni esa tuxmat qilib begona odamga topshiradi bu esa o’smir yigitning sha’ni, qadr-qimmatini va obro’siga putur yetishiga sabab bo’ladi, chaqaloqning kelajagi esa qorong’u. Bu muammoli vaziyatni hozirgi kun talqinida ko’rib chiqadigan bo’lsak, avvalo faxdyo tizimida juda katta ijobiy o’zgarishlar bo’ldi va islohotlar davom etmoqda. Aholiga tezkor ravishda FHDYo arxiv ma’lumotnomalari va axborotini olish imkoniyatini beruvchi fuqarolik holati yagona elektron arxivi shakllantirilgan. Elektron arxivning to’liq ishga tushirilishi natijasida zarur ma’lumotlarni olishga bir necha kun emas, balki muayyan daqiqalar sarflanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” Farmoniga asosan 2018 yil 1 iyuldan boshlab, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarining huquqni qo’llash amaliyotini muvofiqlashtirish, faoliyatini metodik ta’minlash, “FHDYoning yagona elektron arxivi” axborot tizimini yuritish, uning hududiy arxivlariga rahbarlik bo’yicha vazifalar O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi zimmasiga yuklatilgan holda, FHDYo organlari tumanlar (shaharlar) hokimiyatlari tasarrufiga o’tkazildi va bu sohadagi ishlarni doimiy tahlil qilish tizimi yo’lga qo’yildi.

Shunga ko’ra, *amaliyotda vujudga kelishi mumkin bo’lgan noaniqliklarning oldini olish maqsadida* fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishga mas’ul mansabdor shaxslar, ya’ni tumanlar (shaharlar) hokimlari, xotin-qizlar qo’mitalari raislari, Davlat xizmatlari agentligining direktori, tumanlar (shaharlar) FHDYo bo’limlari mudirlarining majburiyatlari va javobgarligi doirasi aniq belgilab berildi.

“Yodgor” qissasi bosh qahramonlaridan bo’lgan Yodgorning bola huquqlari avval ham hozir ham dolrab mavzuligicha qoladi. U davrda aliment, bolaning ta’lim olishi, sog’lom muhitda o’sishi oila a’zolarining mehri bilangina qondirilgan. Shu o’rinda hozirgi zamon bola huquqlari qay darajada isloh qilinganligiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. 1989-yil BMT tomonidan bola huquqlari to’g’risida Konvensiya qabul qilingan bo’lib, unda belgilangan to’rtta yo’nalish (yashash, rivojlanish, himoyalash va bolalarning bevosita o’ziga tegishli qaror qabul qilishda qatnashish huquqlarini ta’minlash) O’zbekiston qonunlarida mustahkamlangan. Masalan, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida oila munosabatlariga oid bobning mavjudligi (ushbu bob boshqa davlatlar konstitutsiyasiga kiritilmaganligi ahamiyatlidir) va unda ota-onalar farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar nafaqat boqishi balki tarbiyalashga ham majbur ekanliklari belgilangan. Undan tashqari, “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”, “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”, “Oliy Majlisning inson huquqlari bo’yicha vakili (OMBUDSMAN) to’g’risida”, “Ona suti bilan oziqlantirishni qo’llab-quvvatlash hamda go’daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to’g’risida”, “Maktabgacha

ta'lim va tarbiya to'g'risida", "Bola huquqlarining qo'shimcha kafolatlari belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunlarda bola huquqlarining kafolatlari ta'minlanishi bilan bog'liq munosabatlar ishtirokchilari va ularning huquq hamda majburiyatlari aniq aks etgan.(2)

1936-yilda shoir tomonidan yaratilgan yana bir mashhur qissa "Shum bola" hisoblanadi. Asarda XX asrdagi Toshkent hayoti tavirlangan. Ushbu asar huquqshunos nigohida o'qilsa yozuvchining huquqiy qarashlari, jamiyat a'zolarining huquqiy madaniyatiga qo'shgan hissasini payqash mumkin. Ikkinchi jahon urushi arafasida nafaqat O'zbekiston balki Markaziy Osiyoda joylashgan Sho'ro hokimiyati siyosiy boshqaruvida bo'lgan davlatlarning o'sha davrdagi qiyofasi, siyosiy jarayonlar, ishsizlik, qashshoqlik va uning yuzaga kelishi oqibatlari yoritilgan.(4)

Asardagi yolg'iz ona siymosida o'sha davrda onalarga, ayollarga va bolalarga bo'lgan e'tibor, ularning huquqlari poymol etilishi ona va bola huquqlarining mavjud emasligini sabab sifatida ko'rish mumkin. Asar bosh qahramoni voyaga yetmagalarning salbiy xulq-atvoriga ega bo'lgan shaxslar domiga tushib qolishi va kattalar tomonidan unga majburan qildirilgan va yuklatilgan yumushlar orqali yozuvchi o'sha davrdagi bolalarning og'ir turmush darajasini yoritib bergan. Undan tashqari, voyaga yetmagan bolaning og'ir mehnatga jalb qilinishi, uning kunda kaltaklanishi, bir tomondan millat kelajagi hisoblangan yosh avlodga bo'lgan munosabat, bir tomondan voyaga yetmaganlarning mehnati himoyalalmaganining yorqin dalilidir. Yetishmovchilik, ilmsizlik oqibatida mayda bezorilik, o'g'irlik, firibgarlikka aralashib qolishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda, davlatimiz tomonidan voyaga yetmaganlar siyosatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularning bilim olishlari uchun sharoitlar yaratilmoqda, Konstitutsiyamizning 41-moddasida har bir shaxs bepul majburiy ta'lim olish huquqiga egaligi, 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmagan shaxslar mahalla, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan kafillikka olinishi, boquvchini yo'qotgan, ko'makka muhtoj, temir daftarga kirgan oila farzandlariga har tomonlama ko'maklashish maqsadida davlatimizning yuritayotgan siyosatini misol qilib keltirishimiz mumkin.(1)

"Yosh kuchlarni to'plash" deb nomlangan adabiy-tanqidiy maqolasi "Bizda ko'p yosh kuchlar, iste'dod egalari biqinib yotadi" degan fikr bilan boshlanadi. Maqola orqali yozuvchi yoshlarni bir yerga yig'ish, iqtidorlarini ommaga ko'rsatish va qo'llab quvvatlashga chorlaydi. Ularning ta'lim va tarbiyasi qanchalik muhim ekanligini ham anglatishga harakat qiladi.(5)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qonunchiligimizni yana mustahkamlash, undagi kamchiliklarni to'ldirish uchun hozirgi kunda chet el tajribalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda albatta bu ijobiy natija olib keladi. Ammo, faqat bir tomonlama cheklanmasdan, buyuk yozuvchilarimiz, jadidlarimiz tomonidan bizga meros bo'lib qolgan asarlarni o'qish orqali qonunchilik va huquqiy tizimni yaxshi tomonga o'zgartirish mumkin. Negaki, ular asarlarida aynan xalqimizning boshidan o'tqazgan qiyinchilik va kamchilikari ochiqchasiga yoritilgan. Shunda, mentalitetimizga, xalqimiz urf-odatlariga ham putur yetqazmaydigan qonun ijodkorligini amalga oshirish yanada osonlashadi. Qolaversa, xalq turmush tarziga mos keladigan xalqchil qonunlarning ijrosini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishni

ta'minlaydi. Demak, huquqbuzarlikning oldini olishda tarbiyaning ahamiyati yuqoridir, chunki har bir ishga huquqiy normalarni qo'llash *huquqiy idealizim*¹ yoki *huquqiy neglizmga*² olib keladi, bu esa huquq tizimida buzilishiga sabab bo'ladi.(3)

Shu o'rinda aytib o'tishim joizki, ta'lim muassasamiz tomonidan aynan G'ofur G'ulom ijodini o'rganishni qo'llab-quvvatlash malakali yuridik kadrlar tayyorlashda tayanch vositalaridan biridir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston".2022. 64-41-moddalar
2. Xalq so'zi 19.11.2020.online nashr
3. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. Toshkent. "Adolat".2018. 275-bet.
4. G'afur G'ulom tanlangan asarlari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi.2021.
5. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi tom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. O'zbekiston SSR. "Fan" nashriyoti.1989. 11-bet.

¹ **Huquqiy idealizm**- har bir ishni hal qilishda faqat huquqiy yondashish, huquqni ideal darajada hisoblash.

² **Huquqiy neglizm**-huquqqa, qonunchilikka bo'ysumaslikka, undan bosh tortishga hakat qilish.